

IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHDA INNOVATSION OMILLAR TA'SIRI

Bobonazarov Jonibek Usmon o'g'li

AT Aloqabank Samarqand hududiy kompleks xizmat ko'rsatish markazi bank operatsiyalarini hisobga olish va nazorat qilish bo'limi yetakchi menedjer

Annotatsiya: ushbu maqolada innovatsiyalarning markaziyligi va ahamiyati yangilanish, davlat ta'lim standartlarining ko'pgina yo'nalish va mutaxassisliklari tarkibiga kiritilishi, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonlar, ishlab chiqarishni tashkil qilishning amalda qo'llaniladigan yangi usullari, bozorlarga kiritilgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlar, xizmatlar, tadbirkor-innovator ixtiro, innovatsiya o'rtasidagi bog'liqlik va boshqalar to'g'risida yozilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiyalar, yangilanish, davlat, ta'lim, standartlar, mutaxassisliklar, texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish, bozorlar, mahsulotlar, xizmatlar, tadbirkor-innovator, ixtiro.

Innovatsiya" so'zi lotincha innovationem so'zidan kelib chiqqan bo'lib - "o'zgartirish yoki modernizatsiya qilish" ma'nosini anglatuvchi innovare fe'lidan olingan. Shunday qilib, innovatsiyalarning markaziyligi va ahamiyati yangilanish bilan bog'liq. Bunday yangilanish faqatgina odamlar qaror qabul qilish uslubini o'zgartira oladigan, standart usullardan voz kechadigan va mavjud me'yor va qoidalar doirasidan tashqarida tanlov qilishni o'rgangan taqdirdagina bo'lishi mumkin.

"Innovatsiya" tushunchasi umumiy toifalarga kiradi. Nihoyatda keng va tarkibiy jihatdan murakkab bo'lib, uning mazmunini ochib berishga doir ko'plab yondashuvlar mavjud.

Iqtisodiy samaradorlikni oshirishda innovatsion omillar ta'siri:

1. Iste'molchi hali tanish bo'lmagan yangi mahsulotni yoki mavjud mahsulotlar uchun yangi sifat darajasini joriy etish.

2. Ilmiy kashfiyotlarga asoslangan mahsulot yoki xom ashyoni tijoratlashirishning yangi usulini anglatadigan yangi ishlab chiqarish usullarini joriy etish.

3. Ushbu bozor ilgari mavjud bo'lganligidan qat'iy nazar, ma'lum bir mamlakatning ma'lum bir sohasi tomonidan hali kirib kelmagan yangi bozorning ochilishi.

4. Ushbu manbaning mavjudligidan yoki u yangi yaratilganligidan qat'iy nazar, yana yangi xom ashyo yoki yarim tayyor mahsulotni qo'lga oling

5. Muayyan sanoatni tashkil qilishdagi o'zgarishlarni amalga oshirish, xususan, monopol mavqega ega bo'lish (masalan, trestlarni yaratish orqali) yoki uni yo'qotish

Olimlar, iqtisodiy tarixchilar, iqtisodchilar hamda siyosatchilar har doim turli mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarga qiziqish bildirishgan. Ularning bu sohadagi bahs-munozaralarida texnologiyaning o'rni doimo ustun bo'lib

kelgan. Iqtisodiy rivojlanishning sabablari va omillarini tahlil qilish davomida, zamonaviy innovatsion iqtisodiy rivojlanish nazariyalari ilk bor XIX asrning o'rtalaridan boshlanadi.

Iqtisodiyot yo'nailishi Davlat ta'lim standartlarining ko'pgina yo'nalish va mutaxassisliklari tarkibiga kiritilishini bugungi kunning talabi hisoblanadi. Mamlakatdagi keskin ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, bozor munosabatlariga o'tish yangi turdagi mahsulot va texnologik jarayonlarini o'zlashtirish, nomenklatura va assortiment bo'yicha o'zgarishi muammolarini vujudga keltirdi. Iqtisodiy o'sishning an'anaviy resurslaridan foydalanish imkoniyatlarining torayib ketishi birinchi o'ringa innovatsion jarayonlarni muhimligini, ular iqtisodiy o'zgarishlarning ajralmas qismi va bo'g'ini bo'lib qolmoqda. Innovatsion jarayonlarni ilmiy va samarali tashkil qilish masalalari ayniqsa dolzarbdir.

Innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi qonunchilik va me'yoriy hujjatlardan foydalanishga katta e'tibor qaratilgan. Bunda huquqiy jihatlar faqatgina innovatsiyalarni moliyalashtirish va rag'batlantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan cheklanib qolmay, balki innovatsion mexanizmining moliyaiqtisodiy, tashkiliy, boshqaruv, axborot va ma'naviy-psixologik elementlarini qamragan kengroq ma'noda ko'rib chiqilgan. Xorijiy tajriba sanoati rivojlangan mamlakatlarda innovatsion jarayonlar rivojlanishining umumiy tendensiyalarini aniqlash va Respublika boshqaruv siyosatida innovatsion faoliyatning eng samarali shakllari va amalga oshirish metodlaridan foydalanish nuqtai nazaridan bayon etilgan.

Xalqaro standartlarga muvofiq, innovatsiya quyidagi shakllarda mujassam bo'lgan yangilikning yakuniy natijasi sifatida belgilanadi:

1. Bozorlarga kiritilgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlar yoki xizmatlar.
2. Yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonlar.
3. Ishlab chiqarishni tashkil qilishning amalda qo'llaniladigan yangi usullari.

Ko'rib chiqilgan yondashuvlarni umumlashtirib, innovatsiyalar quyidagicha tuzilishi mumkin: a) mahsulot yangiliklari (yangi mahsulotlar va xizmatlar); b) innovatsion jarayonlar (mikro darajada - yangi texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni tashkil etish usullari; makro darajada - bozorlar tarkibini o'zgartirish va yangi bozorlarni yaratish). Shunday qilib, iqtisodiy sohada yaratish faoliyatining yakuniy natijasi sifatida innovatsion mahsulotlar va innovatsion jarayonlar bizning o'rganishimiz ob'ekti hisoblanadi.

J. Shumpeter tadbirkorlik nazariyasini sezilarli darajada rivojlantirdi, innovatsion jarayonda tadbirkorning roliga muhim urg'u beradi. Iqtisodiy tahlil nazariyasida birinchi marta u iqtisodiy sub'ektlarni (tadbirkorlarni) ikki turga ajratdi:

1. Institutsional tuzilishdagi o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatadigan, yangi texnologiyalarni, mahsulotlarni va bozorlarni ishlab chiqadigan, ishlab chiqaruvchilar hamda joriy etadigan eski firmalar yaratadigan yoki zamonaviylashtiradigan novatorlar.

2. Mavjud texnologiyalarni ekspluatatsiya qiluvchi, eski turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan, tashkil etilgan firmalar doirasida faoliyat yuritadigan hamda institutlarning o'zgarishiga intilayotgan konservatorlar. J. Shumpeterning ta'kidlashcha, tadbirkor-innovator ixtiro va innovatsiya o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligini tushunishi va faoliyati iqtisodiyotni rivojlantirishni sifat jihatdan o'zgarishiga yordam berishi lozim [5.12]. Innovator-tadbirkorning iqtisodiyotdagi funktsional roli nomutanosiblikka, bozorlarda muvozanatsizlik holatini vujudga keltirishga olib keladi hamda tadbirkorlik foydasi bilan bir qatorda unga qo'shimcha super

Daromadlarni keltirib chiqaradi. Bu esa zamonaviy fanda "innovatsion renta" va "innovatsion kvazi-renta" deb nomlanadi. Ushbu kashfiyot bilan ularning faoliyat motivlari va bozordagi turli xil raqobatbardosh xatti-harakatlarni o'rganish bilan birga J. Shumpeter evolyutsion iqtisodiy nazariyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Bu iqtisodiy o'sish sabablarini tushunishda neoklassik nazariyadan tubdan farq qiladi. Masalan, iqtisodiy o'sishda tadbirkorlikning rolini izohlash jarayoni.

Innovatsion faoliyat. Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsion jarayon tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Innovatsiya deganda g'oyalarni (odatda ilmiy izlanishlar va ishlanmalar natijalari yoki boshqa ilmiy-texnik yutuqlar) bozorga kiritilgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotga, ijtimoiy xizmatlarga yangicha yondashuv amalda qo'llaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonga aylantirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi tushuniladi. Xalqaro statistika amaliyotida qabul qilingan innovatsiyalarni statistik o'rganish metodologiyasining asosiy qoidalari Frascati qo'llanmasida keltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ijtimoiysoha iqtisodiyoti. Darslik./i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.: Iqtisodiyot, 2013.
2. Kempell R. Makkonell, Stenli L. Bryu. Ekonomiks: prinsipq, problemq i politika. Tom 1. – Tallin, 1993.
3. Носов А.М. Теория диффузии инноватсий и инновационное развитие регионов России, Псков, 2015.
4. Портер М.Е. Конкуренция. Пер.с англ.-М.: Издат. Дом "Вильямс", 2001.
5. Porter M. E. Konkurentnaya strategiya. Alpina Biznes Buks, 2005.
6. <https://library.samdu.uz/download/18639>